X.R. SANAKULOV, D.P. XODIYEVA, A.R. SANAKULOVA

# TEXNOLOGIYA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

*To'ldirilgan ikkinchi nashr*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2018

UO‘K: 372.831(075)
KBK 74.263
S–30

## Shartli belgilar:

– topshiriq

– savol

– eslatma

– maqollar

– kasblar haqida ma’lumot

– uyda bajaring

S–30 **Sanakulov, X.** va boshq.
**Texnologiya:** 2-sinf uchun darslik / X.R. Sanakulov, D.P. Xodiyeva, A.R. Sanakulova. – T.: «Sharq», 2018. – 80 b.

I. 1,2. Muallifdosh.

ISBN 978-9943-26-800-5

**UO‘K: 372.831(075)**
**KBK 74.263**

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

**ISBN 978-9943-26-800-5**

© X. Sanakulov, D. Xodiyeva, A. Sanakulova.
© «SHARQ» NMAK Bosh tahririyati, 2016, 2018.

# KIRISH



Aziz o‘quvchi!

Siz ushbu darslik yordamida turli amaliy topshiriqlarni bajarishni o‘rganasiz.

Darslikda rangli qog‘ozdan har xil gullar, maketlar, tabriknomalar, turli ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar, parranda va jonivorlar shaklini yasash, gazlamalardan ajoyib buyumlar tayyorlash usullari o‘rgatiladi. Ayni paytda applikatsiya va mozaika usulida ishlash va boshqa turli qo‘l ishlarini bajarish jarayonlari ham ko‘rsatib berilgan.

Texnologiya darslarida berilgan amaliy ishlarni bosqichli bajarish bilan birga mavzudagi savol va topshiriqlarga to‘liq javob berishingiz, ishni sifatli bajarishingiz hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishingiz lozim.

Aziz o‘quvchilar, atrofingizdagi sizni hayratga solayotgan barcha ezgu ishlar inson mehnati mahsulidir.

Shuningdek, turli kasb egalari va kasb-hunarga oid ma’lumotlar bilan ham tanishasiz.

Unutmang, kelajakda o‘zingiz tanlagan kasb-hunarning mohir ustasi bo‘lishingizda ushbu darslik sizga yaqin ko‘makdosh bo‘ladi.

# TEXNOLOGIYA DARSIDA BAJARILADIGAN ISHLARDAN NAMUNALAR






# TEXNOLOGIYA DARSIDA XAVFSIZLIK QOIDALARI

Aziz o‘quvchilar, texnologiya fani bevosita amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganilgani bois, xavfsizlik qoidalariga amal qilishingiz talab etiladi.

## XAVFSIZLIK QOIDALARI

1. Har bir o‘quvchi faqat o‘z ish joyida ishlashi lozim.
2. Agarda ish jamoa tarzida bajariladigan bo‘lsa, o‘quvchilar o‘zlari uchun belgilab berilgan majburiyatlarini yaxshi bilishlari zarur.
3. Ish faqat o‘qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin, ish joyingizni tayyorlang, ish qurollarini to‘g‘ri va qulay joylashtiring: o‘ng qo‘l bilan ushlanadigan anjomlarni o‘ng tomonga (qaychi, qalam, o‘chirg‘ich va hokazo), chap qo‘l bilan ushlanadiganlari (qog‘oz, yelim va boshqalar)ni

chap tomonga qo‘ying. Sanchiladigan, kesadigan anjomlarni hech qachon ikkita ish quroli orasiga qo‘ymang. Ularni doimo o‘z joyida, tartibli saqlang. Ish qurollarini o‘rinsiz ishlatmang.

5. Har doim ish joyingizni saranjom saqlang.

6. O‘tmas yoki yaroqsiz ish anjomlari bilan ishlamang.

7. Ish anjomlaridan foydalanganda, uni o‘qituvchi ko‘rsatganidek ushlang.

8. Ish anjomlarini asrang, ularni o‘z o‘rnida ishlating, foydalangandan so‘ng tozalab – yuvib, artib qo‘ying.

9. Belgilangan ishni yaxshiroq, chiroyliroq, tartibli bajarishga harakat qiling.

10. Dars davomida yaroqsiz holatga kelgan ish anjomlari to‘g‘risida o‘qituvchingizni xabardor qiling.

11. Ishni tugatishingiz bilan ish o‘rningizni tezda tozalab, tartibli qilib qo‘ying.

# ISH QUROLLARIDAN FOYDALANISH QOIDALARI

## QAYCHIDAN FOYDALANISH QOIDALARI

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.
2. Qaychining uchini yuqoriga qaratib ushlamang.
3. Qaychini ishlatib bo‘lgandan so‘ng ochiq holda qoldirmang.
4. Qaychini yurib turganingizda ishlatmang.
5. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o‘rtog‘ingizga uzating.
6. Qaychini ishlatayotganda qirqish chizig‘i yo‘nalishini hamda materialni ushlab turgan chap qo‘l barmoqlarini kuzatib turing.
7. Yaroqsiz qaychini ishlatmang, uni o‘qituvchingizga topshiring.

## BIGIZDAN FOYDALANISH QOIDALARI

1. Avvalo bigiz bilan ishlaganingizda ustozingiz yoki ota-onangiz ko‘magiga tayaning.
2. Bigizni o‘rinsiz ishlatmang.

3. Sirti silliq va sirpanchiq bo‘lgan qattiq buyumlarni bigiz bilan teshmang.

4. Teshiladigan buyumni qo‘lingizda ushlamang, uni stol, taglik ustiga qo‘yib teshing.

## PICHOQ BILAN ISHLASH QOIDALARI

1. Kanselyariya pichog‘idan o‘qituvchingiz yordamida foydalaning.

2. Kanselyariya pichog‘ini o‘qituvchi ko‘rsatganidek ishlating, kesayotganda qattiq bosmang.

## IGNA BILAN ISHLASH QOIDALARI

1. Ignani ishlatib bo‘lgach, maxsus yostiqchaga sanchib qo‘ying.

2. Ignani hech qachon og‘zingizga solmang.

3. Ortiqcha ignalarni maxsus igna idishda saqlang.

4. Ishdan oldin va ishdan keyin ignalarni sanab ko‘ring, yetishmagan ignalarni, albatta, toping.

# TABIIY URUG'LARDAN APPLIKATSIYA USULIDA NAQSH TUZISH

Poliz ekinlarining urug'laridan foydalanishdan oldin ularni yaxshilab tozalash va quritib olish kerak.







qovoq qovun tarvuz

Urug'larni yelimlashdan oldin naqsh shaklini chizib oling.



1 2 3



4



5



6



1



2

! Kartonni ishga tayyorlang va to‘g‘ri chiziqlar chizing. Unga urug‘lardan naqshlar soling.



3



4

! Sabzavot va meva turlarini sanab bering.

**!** Bu naqshlarni mustaqil yasang.





**?** Naqshlarni tuzishda qaysi tabiiy urug‘lardan foydalanilgan?





## 2-dars

# URUG‘LARDAN KUZGI GULLAR SHAKLINI YASASH

Gulchilik bilan shug‘ullanuvchilar nozik didli va nafosatli qalb sohiblari sanaladi. Chunki ular bir-biridan chiroyli, turli-tuman gullar yetishtirib, barchaning dilini xushnud etadilar.




Gul nimaning urug‘idan tayyorlangan?



Urug‘larni avval bo‘yab, qurigan-dan so‘ng tasvirlarga ketma-ket yelimlab chiqing.








# TABIIY MATERIALLARDAN HAYVONLAR SHAKLINI YASASH




Kerakli materiallarni tayyorlab oling.



1



2



3



4



Namunada ko‘rsatilgan xo‘roz shaklini mustaqil yasang.



Mustaqil bajarib ko‘ring.



Barglarning rangini to‘g‘ri tanlang.

## 4-dars

# PARRANDA SHAKLINI YASASH




**!** Barglarning rangini to‘g‘ri tanlang.







**?** Qanday uy parrandalarini bilasiz?

Tabiiy va turli materiallardan foydalanib, mustaqil yasab ko‘ring.



1

2





3

Parrandalar to‘g‘risida ma’lumot to‘plang.



4

**5-dars**

# «TABIAT MANZARASI»NI TAYYORLASH




Daraxt shaklini chizib oling, sabzavot va meva urug‘larini ketma-ketlikda yelimlab chiqing.






## BOG‘BON VALI

Bog‘bon bo‘lishga
Ahd qildi Vali,
«Ko‘chatlar ekkin
Bahor mahali»
So‘zini oqlab
Ko‘chatlar ekdi.

Ko‘chatlar ko‘klab,
Qaddini tutdi.
Yoz o‘tdi, Vali
Ketdi qayoqqa?
Ko‘chat aylandi
Quruq tayoqqa.

**Dildora Tojiyeva**

6-dars

# TUXUM PO‘CHOQLARIDAN HAJMDOR O‘YINCHOQLAR YASASH

Ota-onangiz, aka-opangiz yordamida bajaring.

Tuxumni o‘yinchoq yasashga tayyorlang.

Tuxumni ehtiyotlik bilan igna yordamida teshib oling.




Tuxumning ichidagi suyuqlikni puflash orqali toza idishga bo‘shatib oling.


4


5

Tozalangan tuxum po‘chog‘ini iliq suvga chayib oling va quriting.


6



Tuxum po‘chog‘idan nimalar yasay olasiz?

Mustaqil yasang.



# 1-nazorat ishi

## Turli materialdan naqsh tuzing



Gilamdo‘z kasbi haqida ma’lumot to‘plang.

**7–8-darslar**

# PLASTILINDAN KOMPOZITSIYA TUZISH



1



2



3

! Kompozitsiya detallarini bosqich-ma-bosqich tayyorlab oling.



4



5



6



7



8

Xonqizi kompozitsiyasini tuzing.



## Mustaqil yasab ko‘ring.











# PLASTILINDAN UY JIHOZLARINI YASANG







Uy jihozlarini yasaydigan kasb egasini bilasizmi?

Hunar, hunardan rizqing unar.




Hunaring bo'lsa qo'lingda,
Non topilar yo'lingda.

Ish quroling soz bo‘lsa,
Mashaqqating oz bo‘lur.



Mustaqil yasab ko‘ring.



Yana qanday uy jihozlarini yasashni bilasiz?

**9-dars**

# TURLI QOG‘OZLARDAN NILUFAR GULINI QURISH-YASASH



1



2



3



4



5




6



7

! Nilufar guli gulbarglari o‘lchamlari ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtiring.



8



9



## Mustaqil yasab ko‘ring.






**10-dars**

# QOG‘OZDAN APPLIKATSIYA USULIDA NAQSH TUZISH



Ranglarni to‘g‘ri tanlang.



## 11–12-darslar

# MOZAIKA USULIDA HAYVON SHAKLINI YASASH




1


2


! Qog‘ozni qo‘lda yirtish usulida maydalang.
Oq qog‘ozga hayvon shaklini chizing.



3

4



! Shakl qismlariga yelim surting.
Rangli qog'oz bo'laklarini tanlab, ketma-ketlikda yopishtiring.



! Qush shaklini mustaqil yasang.

**Mozaika usulida qush shaklini yasash.**




1



2



3



4



5



**13–14-darslar**

# RANGLI QOG‘OZLARDAN ARCHA BEZAKLARINI YASASH

Archa bezagini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajaring.





6



7



8



9

**!** Uyingizdagi archani o‘zingiz bezatishga harakat qiling.



## 2-nazorat ishi

Turli rangli qog‘ozlardan buklash usulida gul shaklini yasang.



15-dars

# RANGLI QOG‘OZDAN QUSH SHAKLINI YASASH

Qog‘ozni buklash va qirqish usulida qush shaklini yasang.




Qushning dum qismidagi rangli uchburchakni past tomonga tortsangiz, qush qanotlari harakatga keladi.

Buklash usulida yasab ko'ring.






Oqqush haqida qanday ertak bilasiz?




# APPLIKATSIYA USULIDA TABRIKNOMA TAYYORLASH

Kerakli ish jihozlarini tayyorlab oling.



? Yil fasllarida qanday bayramlar nishonlanadi?













! Bayramlarga atalgan she'r ayting.

Onajoningizga dil izhoringizni bayon qilishni unutmang!



7



8

9

Bahor faslida qanday taomlar tayyorlanadi?

17-dars

# MOZAIKA USULIDA ERTAK QAHRAMONLARINI YASASH



Olma urug‘i



Qovoq urug‘i



Tarvuz urug‘i

Poliz ekinlari urug‘laridan xo‘rozni birgalikda yasaymiz!







2



3

Urug‘larni tartib bilan joylashtiring.



4



5





6

Qog'oz va urug'lardan foydalanib mustaqil bajarib ko'ring.









1

Ayiqchaga mos qog‘oz bo‘laklarini tayyorlab oling.




2

Mozaika ishini tartibli bajaring.



3



4

Ayiq nimani sevib iste'mol qiladi?



5



6

18-dars

# HUNARMAND USTALAR. PLASTILINDAN O‘YINCHOQLAR YASASH

Hunarmandchilik azal-azaldan shakllanib kelgan.

Hunarmandchilik qo‘l mehnati bilan mahsulotlar tayyorlaydigan kasblarning umumiy nomi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi shaharlarda hunarmandchilikning dastlabki sopol buyumlar yaratish va to‘qimachilik turlari vujudga kelgan.

Kulolchilik, gilamdo‘zlik, zargarlik va boshqa hunarmandchilik turlari mavjud.




Plastilinga to‘g‘ri ishlov bering.

**Fillar haqida nimalar bilasiz?**




**Fillar qanday o‘lkalarda yashay-di?**




# QOG'OZDAN KICHIK HAJMDAGI MEBELLARNI QURISH-YASASH



1




2



3




4



5





6



7

Mebellarning buklash chiziqlarini to‘g‘ri buklang.



8



9

Mebellarga mos ranglarni tanlang.



10



11

## Kreslo yasang

Berilgan chizmalar va o‘lchamlar asosida kreslo yasang.









O‘lchamlarni olishda xatolikka yo‘l qo‘ymang.






## Karavot yasang





## 20-dars

# YUMSHOQ SIMDAN KONTURLI O‘YINCHOQLAR YASASH

Yumshoq sim tanlab oling.



1



2

Samolyotning parragini yasab oling.



3



4

Qanoti, dumi va oyoq qismini yasang.



5

Samolyotning barcha qismlarini tutashtirib chiqing.



21-dars

# 8-MART BAYRAMIGA TABRIKNOMA TAYYORLASH




Kerakli ish jihozlarini tayyorlab oling.



Tabriknoma qismlarini chizing va qirqib oling.



! Tabriknomaga bezak bering.



## 3-nazorat ishi



**22–23-darslar**

# «BAHORGI GULDASTA» KOMPOZITSIYASINI QURISH-YASASH

? Bahorda qanday gullar ochiladi?



1



2



3



4

! Rangli qog‘ozlardan shakllar yasashni diqqat bilan bajaring.



5



6



7



8



9



10

! Rangli qog‘ozlardan bir qancha gul yaproqlarini yasab oling.



11



12

! Gul yaproqlarini tartibli joylashtiring va simlarga to‘g‘ri mahkamlang.



**24-dars**

# NAVRO‘Z BAYRAMIGA BEZAKLAR TAYYORLASH




Navro‘z bayrami haqida she’r yod oling.



Osma gulni mustaqil yasang.




Gul turlarini sanab bering.

**25–26-darslar**

# GEOMETRIK SHAKLLARDAN ROBOT YASASH

! Kartonga robot qismlarini ketma-ketlikda yelimlang.




Geometrik shakllar
Bizlar bilan fikrlar.
Kvadrat va to‘rtburchak,
Doira, romb, uchburchak.

**Tursunboy Adashboyev**

## 27-dars

# TIKUVCHILIK KASBI

**!** Tikish uchun ish qurollarini tayyorlab oling.



## TO‘G‘RI CHOK TIKISH

Ignadan foydalanish qoidalariga rioya qiling!




Tikuvchi turli anjom va buyumlarni tikib tayyorlaydi. Uning mehnati insonlarni zavqlantiradi. Shuning uchun bu kasb-hunar qadrlidir.



Yana qanday chok turlarini bilasiz?

## 28-dars

# GAZLAMAGA TUGMACHA TIKISH



Tugmaga mos rangdagi ip tanlashni unutmang.



Tugmalarni tikishda ipni tugun qilish va mahkamlashda o‘qituvchi ko‘rsatmasiga amal qiling.



Tugmadan tayyorlangan tasvirlarni mustaqil yasang.



29-dars

# TURLI QALINLIKDAGI IPLARDAN O‘YINCHOQLAR YASASH



1



2

! Kartondan 2 dona halqa tayyorlab oling.



3



4

! Halqaga iplarni o‘rab chiqing.



5



6

! Halqaga o‘ralgan ipni o‘rta qismidan qirqib chiqing.



7

8



O‘yinchoqqa mos ko‘z, quloq, tumshuq, oyoq qismini tayyorlab oling.



9

10



Qismlarni ketma-ketlikda ipga yelimlab chiqing.



11



## 4-nazorat ishi




**!** Kvadrat shaklini tayyorlaysiz.




**!** Qog‘ozni ketma-ketlikda buklab yasaysiz.



Mustaqil yasang.




Uy hayvonlariga qaysi jonivorlar kiradi?

30-dars

# GAZLAMA BO‘LAKLARIDAN GUL APPLIKATSIYASINI YASASH

! Gulning rasmini chizib oling. Mato qiyqimlarini rasm ustiga ketma-ketlikda yelimlab chiqing.



1



2

! Ishni bosqichma-bosqich bajaring.



3

? Gazlamadan turli buyumlar tikadigan kasb egalari kimlar?



4



5



Tikuvchi ko‘p ter to‘kar,
Matodan buyum tikar.
Yubka, shim-u kamzulcha,
Sarafan, xalat, nimcha.

**Kavsar Turdiyeva**

# MUNDARIJA


Kirish ........................................................ 3
Texnologiya darsida bajariladigan ishlardan namunalar ........................................................ 4
**1-dars.** Texnologiya darsida xavfsizlik qoidalari ............. 5
**2-dars.** Urug‘lardan kuzgi gullar shaklini yasash .......... 12
**3-dars.** Tabiiy materiallardan hayvonlar shaklini yasash. 14
**4-dars.** Parranda shaklini yasash .......................... 17
**5-dars.** «Tabiat» manzarasini qurish-yasash......... 19
**6-dars.** Tuxum po‘choqlaridan hajmdor o‘yinchoqlar yasash ........................................................ 21
**1-nazorat ishi** .................................................. 23
**7–8-darslar.** Plastilindan kompozitsiya tuzish ...... 24
**9-dars.** Turli qog‘ozlardan nilufar gulini qurish-yasash ........................................................ 30
**10-dars.** Qog‘ozdan applikatsiya usulida naqsh tuzish ........................................................ 33
**11–12-darslar.** Mozaika usulida hayvon va qushlar shaklini yasash........................................................ 34
**13–14-darslar.** Rangli qog‘ozlardan archa bezaklarini yasash ........................................................ 37
**2-nazorat ishi** .................................................. 39
**15-dars.** Uchiriladigan qog‘oz qush yasash .......... 40
**16-dars.** Applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash ........................................................ 42
**17-dars.** Mozaika usulida ertak qahramonlarini yasash ........................................................ 45

**18-dars.** Hunarmand ustalar. Plastilindan o‘yinchoqlar yasash ........ 50
**19-dars.** Qog‘ozdan kichik hajmdagi mebellarni qurish-yasash ........ 52
**20-dars.** Yumshoq sim yordamida konturli o‘yinchoqlar yasash ........ 55
**21-dars.** 8-mart bayramiga tabriknoma tayyorlash........ 57
**3-nazorat ishi** ........ 59
**22–23-darslar.** «Bahorgi guldasta» kompozitsiyasini qurish-yasash ........ 60
**24-dars.** Navro‘z bayramiga bezaklar tayyorlash .. 63
**25–26-darslar.** Geometrik shakllardan robot yasash ........ 65
**27-dars.** Tikuvchilik kasbi ........ 66
**28-dars.** Gazlamaga tugmacha tikish ........ 69
**29-dars.** Turli qalinlikdagi iplardan o‘yinchoqlar yasash ........ 71
**4-nazorat ishi**........ 73
**30-dars.** Gazlama bo‘laklaridan gul applikatsiyasini yasash ........ 75

*O‘quv nashri*

Xamrakul SANAKULOV,
Dilrabo XODIYEVA, Aziza SANAKULOVA

# TEXNOLOGIYA

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik**

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan*

To‘ldirilgan ikkinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2018

Muharrir *R. Nafasov*
Badiiy muharrir *K. Nurmanov*
Sahifalovchi *M. Atxamova*
Musahhih *M. Ziyamuhamedova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.**

Bosishga ruxsat etildi 18.04.2018. Bichimi 70x90 $^{1}/_{16}$.
«Arial» garniturasi. Kegli 16 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 5,85. Nashriyot-hisob tabog‘i 6,0.
Adadi 490375 nusxa. Buyurtma raqami № 129.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko‘chasi, 41.**

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

| T/r | O‘quvchining ismi, familiyasi | O‘quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgan-dagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |
| 6 | | | | | | |

Darslik ijaraga berilganda va o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

| | |
|---|---|
| Yangi | Darslikning foydalanishga birinchi marotaba berilgandagi holati. |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova chizilgan, u yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan, darslikni tiklab bo‘lmaydi. |

*O‘quv nashri*

Xamrakul SANAKULOV,
Dilrabo XODIYEVA, Aziza SANAKULOVA

# TEXNOLOGIYA

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik**

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi
vazirligi tasdiqlagan*

To‘ldirilgan ikkinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2018

Muharrir *R. Nafasov*
Badiiy muharrir *K. Nurmanov*
Sahifalovchi *M. Atxamova*
Musahhih *M. Ziyamuhamedova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.**

Bosishga ruxsat etildi 18.04.2018. Bichimi 70x90 $^1/_{16}$.
«Arial» garniturasi. Kegli 16 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 5,85. Nashriyot-hisob tabog‘i 6,0.
Adadi 61071 nusxa. Buyurtma raqami № 129-A.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko‘chasi, 41.**